O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SAMARQAND VILOYATI
BOSHQARMASI

703003, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel/Faks: 71-203-11-04, E-mail: sam.expert@bk.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Izzatullayev Bexruzjon Xxx
Sana: 20-10-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

262305 - SONLI

Obyekt nomi: Samarqand viloyati Samarqand shahar Ro‘dakiy ko‘chasi №172- manzil hududida "7 (yetti) qavatli (mansardali) turar-joy binolari " qurilishi.	
Buyurtmachi:	INDIGO SAND TRADE MCHJ
Bosh loyihachi:	"YAKHYAEV PROEKT SERVIS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	INDIGO SAND TRADE MCHJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	089291

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Samarqand shahar hokimining 15.08.2017-yildagi 1507-Q-sonli Qarori.
1.2. Samarqand shahar hokimining 10.11.2020-yildagi 694-Q-sonli Qarori.
1.3. Samarqand shahar hokimligining 12.01.2024-yildagi 9-17/36-sonli xati.
1.4. Madaniy meros departamenti Ilmiy-ekspert majlisining 29.09.2020 y. 28 sonli Bayoni.
1.5. “Arxitektura-shaharsozlik Kengashi”ning 16.10.2020-yildagi 38-sonli yig’ilish Bayoni.
1.6. “ToshkentboshplanLITI” DUK ning 30.10.2017-yildagi OGP-2848 sonli xulosasi.
1.7. Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 22.01.2024-yilda berilgan 1718-1718401-176344-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.
1.8. Buyurtmachi “INDIGO SAND TRADE” MCHJ tomonidan 2024-yildagi tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.
1.9. Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish boyicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 09.04.2024-yildagi 120211456-sonli xulosasi.
1.10. “O‘ZGASHKLITI” tomonidan bajarilgan muxandislik-geologik sharoitlar bo‘yicha texnik xulosasi.
1.11. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ “Samarqand Hududiy filiali”ning 22.05.2024-yildagi 18000/1442-son Texnik shartlari.

1.12. “Samarqand suv ta’minoti” AJ “Samarqand shahar filiali”ning 08.05.2024-yildagi 360-sonli Texnik sharti.

1.13. “Hududgaz Samarqand” GTF ning 19.06.2024-yilda berilgan “075973”-sonli Texnik sharti.

1.14. Davlat ekalogik ekspertizasi markazi Samarqand viloyat filialining15.05.2024-yildagi 01-02/08-705-son XULOSASI.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Kitob 1 – Umumiy tushuntirish xati va unga ilova qilingan hujjatlar.

2.2. Kitob 2 – Jamlangan smeta hisobi.

2.3. Al`bom 1 – Bosh reja va obodonlashtirish.

2.4. Al`bom 2 – Arxitektura-qurilish memoriy rejalashtirish qismi, texnologiya qismi

2.5. Al`bom 3 – Isitish va shamollatish tizimlari.

2.7. Albom 4 – Suv va oqova suv tarmoqlari.

2.6. Al`bom 5 - Elektr tarmoqlari.

2.8. Albom 6 – Yong’indan xabar berish va ogohlantirish, Videokuzatuv tizimlari.

2.9. Albom 7 - Kichik arxitekturaviy shakillar.

2.10. Albom 8 - Nogironligi bo’lgan shaxslarga harakatlanish loyihasi.

2.11. Albom 9 - Qurilishni tashkil etish bo'limi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Bosh reja:

Ajratilgan yer maydoni, Samarqand shahar, Rudakiy ko‘chasi 172-uy hududa joylashgan bo’lib, quyidagilar bilan chegaralangan:

Shimoldan – mavjud bino bilan;

Sharqdan - aholi turar-joy binosi bilan;

Janubdan - aholi turar-joy binosi bilan;

G‘arbdan - ko‘p xonadonli turar-joy binosi bilan chegaralangan.

Ajratilgan yer maydonida yetti qavat mansardali turar-joy binosi qurilishi, avtoturargoh, qattiq maishiy chiqindilar vaqtincha yig‘ish maydoni, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish maydoni tashkil qilish ko’zda tutilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

Qurilish hududi – 4407,0 m2;

Qurilish osti maydoni – 644,0 m2;

Qattiq qoplamalar maydoni – 2847,0 m2;

Obodonlashtirish maydoni – 916,0 m2.

3.2. Arxitektura rejalashtirish yechimlari:

Yetti qavat, yerto’la va mansardali turar-joy binosi rejasi bo’yicha to’rtburchak shaklda bo’lib, o’qlari bo’yicha o’lchami 42,0x15,6 metrni tashkil etadi. Binoning balandligi 24,8 metr. Binoning yerto’la qavati xonalari poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3,66 metr. Birinchi qavat xonalari balandligi poldan shiftgacha 2,8 metr. Qolgan qavatlar xonalari balandligi poldan shiftgacha 2,8 metr. Poydevor (tsokol) balandligi yer yuzasidan h=1,2 metr balandlikda.

Yerto’la qavatida texnik xonalari, omborxonalar, lift va zinapoyalar joylashgan. Bino ikkita kirish yo’lakli bo’lib, birinchi qavatda zinapoya va lift tugunlari va xonadonlar joylashgan. Qolgan qavatlarda xonadonlar joylashgan.

Binoning texnik iqtisodiy ko’rsatgichlari:

Qurilish maydoni – 644,3 m2.

Umumiy maydoni – 3804,8 m2.
Qurilish hajmi – 21166,1 m3.
Xonadonlar soni – 48 xonadon.

Ichki pardoz ishlari:

Ichki pol qoplamalari – beton, “Keramogranit”, keramik plitka, laminat, texnoelast EKP qoplamalari qo`llaniladi.
Ichki devorlar - sifatli Rotband qorishma bilan tekislash, yaxshilangan sifatli suvli emulsiyasi bilan bo'yash. Hojatxona, vannaxona va oshxona jihozlari osti balandligi h=3,0 metr keramik sirlangan plitkalar yopishtiriladi.
Shiftlar – beton yuzalarni yelimli shpatlyovka bilan tekislash, yorqin rangli suvli emulsiya bilan bo'yoqlash.
Derazalar va vitrajlar – ko’p kamerali alyumindan, ikki qavat oynali qilib o’rnatiladi.
Eshiklar – tashqi yo’lakdan va xonadonlarga kirish eshigi metalldan, ichki xonalardagi eshiklar alyumin va MDFdan yasaladi.

Tashqi pardoz ishlari:

Sokol qismi – 10 mm qalinlikdagi "Keramika" plitkalar yopishtirish.
Zinapoya va panduslar - 10 mm qalinlikdagi "Keramika" plitkalar yopishtirish.
Tashqi devor – issiqlik saqlovchi qoplama ustidan fasad bo’yoqlar bilan bo’yash.

3.3. Loyihada Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-iyuldagi PQ–266-son Qaroriga muvofiq:

- Avtoturargoh hududida nogironligi bo`lgan shaxslar uchun alohida joylar ko`rsatilgan.
- Binoga asosiy kirish qismida zina va nogironlar uchun pandus hisobga olingan va chiqib tushish uchun 2 tomonlama tutqichlar o`rnatilgan.
- Yo‘laklar ko‘zi ojiz shaxslar harakatlanishi uchun taktil qoplama bilan jihozlanishi ko`zda tutilgan.
- Yo’laklardan xonalarga kirish eshiklari perimetri bo’ylab eni 100 mm bo’lgan kontrast rang bilan ajratib bo’yash ko’zda tutilgan.

3.4. Qurilish uchastkasining xususiyatlari:

Iqlim zonasi - 2.
Tashqi harorat t-13 daraja.
Me'yoriy shamol yuki 0,38
kPa. Me'yoriy qor yuki - 0,5 kPa.
Seysmik hudud 8 ball.
Ikkinchi turdagi cho’kuvchan tuproqlar.

3.5. Tuzilmalarning xususiyatlari:

Asos – tuproq yostig’i H=2600mm.
Poydevor – quyma temir-beton plita h=75sm, beton sinfi M B20.
Devor – D500 markadagi gazoblokdan devorlari M50 qorishmasida kompleks tuzilishga ega.
Pardadevorlar – D500 markadagi gazoblokdan devorlari M50 qorishmasida.
O’zaklar – quyma temir-beton, beton sinfi M B15.
Rama – quyma temir-beton, beton sinfi M B25 va M B20.
Diafragma – yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B20.
Lift shaxtasi – yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B20.
Orayopma – zavodda tayyorlangan yig'ma temir-beton plitalar, va yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B25.

Zinapoya – yaxlit quyma temir-beton.
Yopma –metal ferma.
Tom – yog'och chordoqli ustidan profilli temir varaq.

Konstruktiv yechim.

Yerto'lali yetti qavat va mansard qavatli turar-joy binosi o'lchamlari o'qlarda 42,0x15,6 metr. To'ldiruvchili rama-bog'lamli karkas konstruktiv tizim qabul qilingan bo'lib, ustunlar orasidagi devor karkas ishida ishtirok etmagan.

Qurilishni tashkil etish. (POS).

Qurilishni tashkil etish loyihasi amalga oshirildi.
Qurilish bosh rejasi ishlab chiqilgan.
Qurilish xavfsizligi ko'rsatilgan.
Asosiy qurilish ishlab chiqarish usullari, o'rnatish ishlari ko’rsatilgan.
Qurilishning davomiyligi 20,0 oy.

3.6 Energiya (tejamkorlik) samaradorlik:

Loyiha O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9 sentabrdagi PF-220 sonli farmon va 2025-yil 11-martdagi PQ-100-son qarori, O’zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 31.03.2017 – yildagi bayonnomasi va QMQ 2.01.04-18, ShNQ 2.01.04-18, QMQ 2.01.01-22 ga asosan energiya tejamkorlik bo'yicha quyidagi ishlar qo'llanilgan.

- Tomda issiqlik saqlash qatlami uchun 180 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazalt asosli mineralovata (γ=120 kg/m³) qatlamili solingan.
- Romlar (eshik va deraza) plastikli 1 kamerali steklopaket (ikki oyna), yon oynalarni devor bilan tirqishi qurilish penasi bilan to'ldirilgan.
- Binoning sokoldan yuqori qismi gazablok devor tashqi tomondan 30 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazal asosli mineralovata t (γ=120 kg/m³) qatlamli qoplangan; binoni sokol qismida 30 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi “ПЕНОПЛЕКС” (γ=28 kg/m³) berilgan.
- Binoning birinchi qavati pollari ostiga issiqlik izolyatsiyasi uchun qalinligi 50mm bo'lgan 1 qatlam “ПЕНОПЛЕКС” (γ=28 kg/m³) solingan.
- Elektr simlari va jixozlari O'zbekiston Respublikasi 2011-yildagi Elektr-uskunalarni o'rnatish qoidalari (EO'Q) va QMQ 3.05.06-97, QMQ 2.04.17-19 va ShNQ 2.08.01-05 yildagi meyorlarga asosan bajarilgan. Elektr energiyasini tejash maqsadida loyiha ishlarida quyosh panellari, 550 Vt, jami 46 dona o’rnatish qabul qilingan. Obyektning elektr yoritish va favqulotda yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat sensorlari ko`zda tutilgan.
- Issiq suv ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.08.2019 yildagi PQ-4422 sonli qaroriga muvofiq, energiya samaradorligini oshirish maqsadida issiq suv ta'minoti uchun sertifikatlangan quyosh suv isitkich qurilmalaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

3.7. Yong'in xafsizligi bo'limi:

Loyiha bilan 1 ta blokdan (tip-3) iborat yerto'lali yetti qavat va mansard qavatli turar joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Turar joy binosining yerto‘la qavatida texnik xonalar (avvalgi murojaatlardagi avtoturargoh loyihadan chiqarildi), 1-8 qavatlarida yashash xonadonlari joylashtirish rejalashtirilgan. Yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga chiqish uchun 2 ta evakuatsiya yo‘llari tashkil etilgan.

Tom qismi - yog‘och konstruksiyalari yordamida profilli temir varaq yordamida yopilgan. Bino tom qismiga chiqish ichki zinapoya orqali. Yashash xonadonlarini isitish – individual ikki konturli isitish qozonlari (is gazlarini chiqarib yuborish uchun fasad bo‘ylab tik dudburonlar) orqali.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0., funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3, balandligi +23,1 m (eng yuqori yashash qavatining ochiladigan oynasining pastki chegarasigacha).
Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar: Loyiha hujjatlarida binoning tashqi fasad qismi uchun yonmaydigan materiallar, har bir xonadondan ochiq turdagi (chiqish joyi, chetidan (tores) derazagacha eniga 1,2 m. dan kam bo‘lmagan yopiq devor bilan ta’minlangan) balkonlarga chiqish, balkonlarda avariya lyuklari, tom yog‘och qismlariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik bilan ishlov berish, yong‘in o‘chirish tashqi manbasi sifatida yong‘in o‘chirish gidranti, yong‘in-qutqaruv avtomobillarini harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘l, xonadonlarning barcha ximoya qilinuvchi xonalari yong‘in signalizatsiya tizimi (manzilli) habarlagichlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, tom qismida metall tutqichlar, evakuatsiya yo‘nalishidagi barcha eshiklar uchun o‘zini-o‘zi berkituvchi moslamalar, evakuatsiya chiqish joylarida chiqish yo‘nalishini ko‘rsatib turuvchi yonuvchan “Выход” tablolari, kranlar bilan ta’minlangan ichki yong‘in o‘chirish suv tizimi, yerto‘la qavatida bosim ko‘taruvchi nasoslar.

3.8. Smeta qismi:

Ishlarning qiymatini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida" 2003-yil 11-iyundagi 261 son qaroriga muvofiq resurs usulida amalga oshiriladi, "O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida" 2004-yil 12-maydagi 226-son va SHNQ 4.01.16-09 ga muvofiq shartnomaviy joriy narxlarda qurilish qiymatini aniqlash qoidalari. Obyektning joriy narxlardagi qiymati "O'zbekiston Respublikasi qurilish ishlab chiqarishida foydalaniladigan moddiy-texnika resurslarining joriy narxlari katalogi", ishlab chiqaruvchilarning ulgurji narxlari 2024 yil 4-chorak uchun birjalardagi narxlar va Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalangan holda resurs usuli bo'yicha hisob-kitob hujjatlari asosida aniqlanadi (qurilish mashinalari va mexanizmlari, moddiy resurslar va asbobuskunalar, narxlarini kelishish protokoli Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari A.G.Shukurov tomonidan tasdiqlangan) va «Javohir-Navoiy» MCHJ tomonidan tasdiqlangan moddiy resurslar va asbob-uskunalar narxlarini kelishish bo'yicha protokol. Mehnat xarajatlari (1 kishi/soat uchun) bosh buyurtmachi tomonidan tasdiqlanib taqdim qilingan kelishilgan narxlar dalolatnomasiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 4-choraklik bilan bo‘lgan davrda “Qurilish” tarmog‘ida o‘rtacha oylik ish haqi darajasining 12 foizi ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalarni hisobga olgan holda 27872,84 so'm qabul qilindi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Isitish tizimi:

Isitish uchun tashqi havo harorati hisobiy qiymati $t_н$ = -12 °C, ichki havo harorati esa SHNQ 2.01.01-22 talablariga muvofiq qabul qilingan. Loyihada individual isitish tizimi ko‘zda tutilgan. Har bir xonadonda alohida devorga o‘rnatiladigan, ikkita issiqlik almashinuvi qurilmasiga ega bo‘lgan, isitish va issiq suv ta’minoti uchun mo‘ljallangan elektr energiyada ishlaydigan Watson D.J. rusumidagi 8.0 kVt va 12.0 kVt quvvatli ikki konturli isitish qozonlari o‘rnatiladi. Isitish tizimi ikki quvurlik, gorizontal sxemada, quvurlar pastdan o‘tkazilgan. Issiqlik tashuvchining parametrlari: Isitish tizimida: 80–60 °C Issiq suv ta’minotida: 50 °C Isitish asboblarining issiqlik chiqarishini boshqarish uchun ikki funksiyali kranlar o‘rnatiladi. Quvurlar materiali – alyuminiy bilan mustahkamlangan polipropilen. Quvurlar devorlar va

ichki to‘siqlardan o‘tgan joylarda quvurlar harorati o‘zgarishida erkin harakatlanishi uchun qisqa quvur bo‘laklaridan tayyorlangan g‘iloflar o‘rnatiladi. Gilza bilan quvur o‘rtasida kamida 15 mm bo‘shliq (halqali bo‘shliq) qoldiriladi va bu bo‘shliq yonmaydigan material bilan to‘ldiriladi. Isitish qurilmalari sifatida alyuminiy seksiyali radiatorlar tanlangan. Radiatorning har bir seksiyasi 80–60 °C haroratda 190 Vt quvvatga ega. Radiatorlar havo chiqarishkranlari bilan jihozlangan, ular radiator komplektiga kiradi. Isitish tizimidan suvni bo‘shatish uchun sanuzelga olib borilgan moslashuvchan shlang yordamida amalga oshiriladi.

4.2. Shamollatish tizimi:

Turar-joy binosida tabiiy tortish kuchi yordamida ishlaydigan tortuvchi shamollatish tizimi loyihalashtirilgan. Tashqaridan havo oqimi deraza romlari orqali kiradi, chiqindili shamollatish esa oshxonalar, sanuzellar va hammomlardan maxsus kanallar orqali amalga oshiriladi. Havo kanallari materiali – yupqa qatlamli galvanizatsiyalangan po‘lat.

4.3. Maishiy ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari:

Bino sovuq va issiq suv ta'minoti tizimlari va kanalizatsiya bilan jihozlangan. Tizimlarni hisoblash va kastratsiya qilish ШНК 2.04.01-22 ga muvofiq amalga oshirildi. Suv ta'minoti va oqova suv tizimlarini o'rnatish ShNK-2.04.09-07 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Podvalga yotqizilgan magistral quvurlar GOST 10704-91 Ø76x3.0mm, Ø57x3.5mm, Ø42.5x2.8mm va Ø32x2.5mm bo'yich elektr payvandlangan po'lat quvurlardan yasalgan va santexnika qurilmalariga tokchalar va simlar barqaror polipropilen quvurlardan Ø40x5.5 mm va Ø25x3.5 mm PN 20. Kesishganda. polga ega polietilen quvurlar, quvur qoldiqlari bilan ta'minlash. Binoning ichki tarmog'idagi bosimni oshirish uchun nasoslar taqdim etiladi. Tarmoqdagi bosimini ushlab turish uchun kirish joyida gidravlik akkumulyatorlar mavjud. 10 bar bosim bilan V=500 l. Bino ichidagi magistral sovuq suv quvurlari podvalga yotqizilgan. Stoyaklar va polipropelin quvurlar derov va pol ostida yopiq tarzda montaj qilinadi. Asosiy sovuq suv ta'minoti tarmog'i bitta kirishdan quvvat oladigan tarmoq sifatida yaratilgan. Magistral quvurlarni qalin mineral jun bilan izolyatsiya qilish kerak. 40 mm. Binoning qurilish hajmi V=16200m³ ni tashkil qiladi. Tashqi yong'inni o'chirish uchun suv sarfini hisoblash 15 l / sek. Tashqi yong'inni o'chirish yong'in gidrantlaridan hal qilinadi. Kirish joyidagi suv iste'molini hisobga olish uchun UzMeter-40 va kvartiralari uchun UzMeter-15 hisoblagich taqdim etiladi.

4.4. Issiq suv ta'minoti T3:

Issiq suv taminoti sifatida devorga o'rnatilgan ikki pallali elektr energiyada ishlaydigan kotyol tanlangan. Amaldagi quvurlar issiq suv ta'minoti uchun polipropilen bosimli quvurlardir Ø25x3.5 mm. Bino maishiy issiq suv tizimlari uchun to'liq quyosh suv isitgichlari TPKNP 20 / H 200L bilan jihozlangan. Quvurlar, zamin trubkasidagi eshiklardan o'tayotganda devorlar ostida yopiq holda yotqiziladi. Issiq suv iste'molini hisobga olish uchun UzMeter-15 hisoblagich taqdim etiladi.

4.5. Oqova suv ta'minoti:

Santexnika qurilmalaridan maishiy va chiqindi suvlar tortishish kuchi bilan quvur liniyasi orqali tashqi oqova suv tushiriladi. Ichki tarmoqlar GOST 22689.2-89 bo'yicha Ø50,Ø100 va Ø150 mm kanalizatsiya quvurlaridan tayyorlanadi. K1 quvurlari 3 metrgacha qadamlar bilan MP-HI 4" qisqichlari bilan osilgan tayanchlarda Hilti mahkamlagichlari yordamida texnik er ostidagi shiftga mahkamlanadi. Gorizontal uchastkalar chiqish joyiga qarab i = 0.02-0.03 nishab bilan yotqiziladi. Tarmoqda ich qotib qolishni bartaraf qilish uchun tozalash va qayta ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan. Qurilish konstruktsiyalari bilan kesishgan joyda GOST 10704-91 bo'yicha Ø159x3,0 mm elektr payvandlangan po'lat quvurlarning korpusi taqdim

etiladi.Gorizontal asosiy uchastkalar tepada yotqizilgan. nazorat qudug'ini hisobga olgan holda qavat.

Buyurtmachi tasdiqlagan loyiha topshirig’ini inobatga olgan holda, ushbu hulosa “Tashqi suv ta’minoti va oqovasuv tizimlari” qismi loyihani ikkinchi bosqichida bajarish sharti bilan tavsiya etiladi.

4.6. Ichki elektr ta`minoti:

7 qavatli turar-joy binosining elektr ta`minoti.

Hisobiy quvvati -124 kVt.

II toifali iste'molchi.

Asosoiy taqsimlash qurilmasi sifatida VRU1 – 21-10 tipidagi shitlar ishlatilgan.

Elektr energiyasi hisoblagichlarimi urnatish uchun qavatlarda SHE va xonadonlarni taqsimlash qurilmasi SHK tipidagi shitlar ishlatilgan. Obyektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat sensorlari ko`zda tutilgan. xonadonlarda osma patronlar ko`rsatilgan. Yoritish tarmoqlari VVGng (3x1,5) mm2 kabeli bilan PVX quvurlarda tashlangan. Elektr tarmoqlari PVX quvurlarida turli kesimdagi VVGng kabeli bilan devor ichi bo`ylab yotqizilgan. Loyihada har bir binoning tom qismiga 46 dona quvvati 550 Vt bo'lgan quyosh panellari o'rnatilishi va tarmoqqa 30 kVt quvvatli invertorlar orqali ulanishi ko'rsatib o'tilgan. Elektr energiyasini hisobga olish EX-518 hisoblagichi va kvartiralar uchun KAIFA MA110 hisoblagichi tomonidan ta'minlanadi. Yerga ulash 50x50x5mm po'lat burchak va 40x4mm po'lat belbog'orqali amalga oshirilgan.

Tashqi elektr ta`minoti loyihasi ikkinchi bosqichda ishlab chiqiladi.

4.7. Kuchsiz tok:

Loyihada «GAMMA-512» ishlab chiqarilgan uskunalar asosida yong‘in signalizatsiyasi tizimi ko‘zda tutilgan. Manzilli tizimni uzatish "GAMMA-512 ППКОПУ" boshqaruv paneli yordamida yong'in signalizatsiya halqalarining holati to'g'risida xabarlarni yig'ish, qayta ishlash va ro'yxatga olishni ta'minlaydi. Yong'inni aniqlash uchun ДИП-А-212-3 tutun optik-elektron manzilli yong'in datchiklari, termal maksimal-differensial yong'in detektorlari va mumkin bo'lgan evakuatsiya yo'llarida qo'lda chaqiruv yong'in datchiklari ИПР(А)-513-4 manzil signallari o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Yo'laklarga va koridorlarga ovozli xabar berish “GAMMA-UOSZ” uskunalari orqali amalga oshiriladi.

• Manzilli aloqa liniyalari KPSVVng(A)-LS 2x2x0,8 kabeli yordamida amalga oshiriladi.

• RS-485 interfeys liniyalari KSVPPe 2x2x0,8 kabeli yordamida amalga oshiriladi

Loyihada xar-bir xonadonda internet-aloqa, televidenie tizimi tarmoqlari uchun texnik imkoniyatlar ko’zda tutilgan bo’lib, internet qurilmalari, televidenie rozetkalarini o’rnatish ko’zda tutilgan.

Videokuzatuv tizimi binolardagi ichki IP kameralari va binoga yaqinlashishni kuzatish uchun tashqi kameralar orqali amalga oshiriladi. Raqamli video yozuvchisi sifatida 8 kanalli qattiq diskni qo'llab quvvatlaydigan DS-7708NIE2 - NVR rusumli raqamli video yozuvchisi har birining sig‘imi 6 Tb gacha bo‘lgan disklar bilan ta’minlanadi. Barcha videokuzatuv tarmoq uskunalari telekommunikatsiya shkafiga server xonasiga joylashtiriladi. Videokuzatuv tarmoqlari KSVPPE 4x2x0,52 kabellari bilan amalga oshiriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha tasdiqlangan:

- Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining

09.04.2024 yildagi 120211456 -sonli xulosasi.

Loyiha kelishilgan :

- Samarqand viloyati bosh arxitektori bilan kelishilgan.
- Samarqand shahar SEO va JSB bilan kelishilgan.
- Samarqand shahar FVV bo’limi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **15 933 955 764** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
945 588 107 so'mga kamaytirilib, **14 988 367 657** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **12 309 848 832** so'm
Asbob-uskunalar: **1 072 622 291** so'm
QQS: **1 605 896 535** so'm
Bundan tashqari:
Zilzilabardoshlikga karshi vibrodinamik tekshiruv ПК-161: 300 000 000 so'm (ekspertiza ko'rib chiqilmagan).

6.1. Ekspertiza sharhlari va takliflariga binoan smeta hujjatlariga quyidagi tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- qabul qilingan standartlar ShNQ ga muvofiq tuzatildi;
- mashina soatlarining resurs ko'rsatkichlari, odamning ish haqi soatlari aniqlandi;
- qurilish materiallari va jihozlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi;
- materiallarni tashish xarajatlari aniqlandi;
- pudratchining boshqa xarajatlari aniqlandi.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3 bob 29-punktiga muvofiq va SHNQ 1.03.06-13 da «Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir»

6.3. Qayd e'tiladiki, smeta bo'limi mutaxassisi loyihadagi va ekspert ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlaridagi ish hajmlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi.

6.4. Ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilgan birlamchi loyihaoldi va asoslovchi hujjatlarining SHNQ 1.03.06 13 va SHNQ 1.03.01-16 talablariga mos kelishi borasida berilgan kamchiliklarning bartaraf etilmaganligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi. Loyihachi ishchi loyiha hujjatlarni buyurtmachiga ekspertiza xulosalarida ko‘rsatilgan sharxlar bo‘yicha to‘g‘irlab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi. Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘g‘irlanmasdan topshirilganda mazkur xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

6.5. Buyurtmachi va pudratchi tashkilot ijro hujjatlarini rasmiylashtirishda SHNQ 4.02.00-20 "Qurilish ishlariga resurs elementli smeta normalarini ishlab chiqish va tadbiq etish bo‘yicha umumiy nizom", 4 bo‘lim "Resurs elementli smeta normalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar", 4.1-bandiga asosan resurs elementli smeta normalari tarkibiga kiruvchi smeta normalaridagi materiallar sarfi ishlab chiqarish ishlari uchun buyurtma qilish va ularni hisobdan chiqarishga asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

6.6. Eslatma Buyurtmachiga:

- uskuna, mebel va inventar xarid qilishda buyurtmachi O'zbekiston Respublikasining 684-sonli 04/22/2021-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonuniga amal qilishi shart;
- asbob-uskunalar ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan;
- loyiha tashkiloti va buyurtmachi taqdim etilgan ish hajmlari, narxlar ro'yxati, tijorat takliflari va dastlabki ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun javobgardir (Vazirlar

Mahkamasining 579-son qaroriga);

- bajarilgan ishlar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarda belgilangan tartibda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishda pudratchining qurilish materiallari va asbob-uskunalari, mashinalari va mexanizmlari mehnat xarajatlari, pudratchining boshqa xarajatlari narxining haqiqiy xarajatlarini hisobga olinishini ta’minlash zarur;
- obyektning yakuniy qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, nazorat o‘lchovi natijalariga ko‘ra amalda bajarilgan ish hajmiga asosan aniqnadi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321 son qarorida);
- loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tashkilotining loyiha bo‘yicha e’tirozlarisiz ekspertiza ko‘rigiga topshirildi.

6.7. Ushbu ekspert xulosasi chiqarilishi munosabati bilan 020943-sonli ariza raqamli, 15-08-2024 yildagi 214139-sonli murojaat raqamida berilgan ekspert xulosasi bekor qilinadi va haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.8. Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

7.1. Ish loyihasi: "Samarqand viloyati Samarqand shahar Ro‘dakiy ko‘chasi №172- manzil hududida "7 (yetti) qavatli (mansardali) turar-joy binolari " qurilishi." ekspert tekshiruvi natijalari va ushbu xulosaning 6.3-6.7 bandlaridagi fikrlarni hisobga olgan holda, keyingi ko'rib chiqish tavsiya etiladi va tasdiqlash.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-son, 4.01.16-09 SHNQga muvofiq qurilish qiymati tavsiyaviy tusga ega bo’lib Buyurtmachining bajarilgan ishlar uchun pudratchi bilan o'zaro hisob-kitob qilish uchun asos bo'la olmaydi. Buyurtmachi pudratchi bilan birgalikda nazorat o'lchovi natijalarini hisobga olgan holda belgilangan tartibda asoslovchi hujjatlarga asosan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi. Shartnoma narxi va bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha yakuniy qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi.

Bosh ekspert: Rashidov Elyor Ismat O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Abdiyev Mirzabek Sayitmuradovich, Vladikina Anna Vasilevna, Abdukarimov Baxodur Istamovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Xashimov Ilxom Xamidovich, Shamsiyev Ma’mur Maxmudovich, Sharipov Alisher Abdusamiyevich, Tuyg‘unov Kamol Komiljon O‘g‘li, O‘ktamov Ma’murjon Ne’mat O‘g‘li